

Banklarning investitsiyaviy faolligini oshirish bo'yicha vazifalar belgilandi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-oktyabr kuni bank tizimini isloh qilish va banklarning investitsiyaviy faolligini oshirish borasidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish va ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda banklar muhim o'rin tutadi. Shu bois ushbu moliyaviy institutlarning barqarorligi va hayotdagi rolini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Keyingi yillarda davlat byudjetidan tijorat banklariga dasturlarni moliyalashtirish uchun 8,4 trillion so'm, aylanma mablag'lar uchun 400 million dollar, ustav kapitalini oshirish uchun 1,7 milliard dollar mablag' ajratildi. Umuman olganda, so'nggi ikki yil ichida banklar kapitalizatsiyasini oshirish uchun 3,3 milliard dollar davlat mablag'i berildi.

Yig'ilishda bu mablag'lardan samarali foydalanilmayotgani, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishga ko'maklashish, mijozlar va bank daromadlarini ko'paytirish borasidagi ishlar yetarli emasligi tanqid qilindi.

Misol uchun, xususiy banklar kredit resursining yarmidan ko'pini depozitlar hisobiga shakllantirayotgan bo'lsa, davlat banklarida bu ko'rsatkich atigi 10 foiz atrofida. Shuningdek, davlat banklari kredit portfelining yarmidan ko'pi 5 ta yirik davlat korxonasi hissasiga to'g'ri keladi. Hanuzgacha eskirgan dasturiy ta'minotlardan foydalanayotgani uchun bank xizmatlari sifati talab darajasida emas.

Tizimda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida banklar faoliyatida davlat ishtiroki bosqichma-bosqich qisqartirilmoqda. Xususan, davlat dasturlari doirasidagi kreditlar foizi qayta moliyalash stavkasi bilan tenglashtirildi va 2021-yildan to'liq erkinlashtirilishi belgilandi. Bu banklarni ko'proq mijoz topish, resurs jalb qilish, kredit ajratish bo'yicha izlanishga, rivojlanishga undaydi.

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, banklar transformatsiyasini tezlashtirish va sifatli amalga oshirish maqsadida barcha davlat banklaridagi aksiyadorlik vazifasi Moliya vazirligiga yuklatildi.

Yig'ilishda Moliya vazirligi va Markaziy bankka Jahon banki bilan birgalikda bank sektorini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishni yakunlash vazifasi qo'yildi.

Davlatimiz rahbari tijorat banklarining hozirgi holatini tahlil qilib, dolzarb chora-tadbirlar haqida to'xtalib o'tdi.

Bugungi kunda banklarga qo'yilgan depozitlarning 70 foizi qisqa muddatli bo'lgani holda, kreditlarning 90 foizi uzoq muddatga berilgan. Ayrim banklarda joriy xarajatlar daromadga nisbatan 60-70 foizni tashkil etadi. Shu bois banklarni moliyaviy sog'lomlashtirish va ularning barqarorligini ta'minlash masalalari ham muhokama qilindi.

Banklarning mijozga yo'naltirilgan, aholining keng qatlamiga mo'ljallangan xizmatlarini ko'paytirish hamda kreditlash tartibini soddalashtirish bo'yicha topshiriqlar berildi. Onlayn va mobil aloqa orqali xizmat ko'rsatish, chet ellarda keng tarqalgan "skoring" va avtomatlashtirilgan modulli kredit ajratish tizimini kengaytirish zarurligi qayd etildi.

Banklarning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish, biznesga yo'naltirilgan korporativ boshqaruv tizimi va kuzatuv kengashlari faoliyatini jonlantirish muhimligi ko'rsatib o'tildi. Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish orqali xususiy sektor ishtirokini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

– Endi banklar resurs jalb etish bo'yicha "o'z aravasini o'zi tortishi" kerak. Shundagina bozor sharoitiga mos, zamonaviy boshqaruv tizimiga ega moliyaviy institutga aylana oladi, – dedi Prezident.

Yig'ilishda kadrlar masalasiga ham alohida e'tibor qaratilib, Markaziy bank huzurida tashkil etilayotgan Bank xodimlarini qayta tayyorlash korporativ markazi va Toshkent moliya instituti bu borada jiddiy shug'ullanishi lozimligi qayd etildi. Bank xodimlarining mijozlar bilan ishlashini rag'batlantirish, ularning faoliyatini samaradorligiga qarab baholash indikatorlarini joriy etish bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilish so'ngida "Sanoatqurilishbank" hamda Xalq bankining 2020-yil va istiqboldagi rejalari taqdimoti o'tkazildi.

O'ZA